

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

TAYLANOVA MUQADDASXON NAZARBOY QIZI

**KOREYSCHA ERTAKLARNING O‘ZBEKCHA TARJIMASIDA
HAYVONOT VA O‘SIMLIK DUNYOSINING LEKSIK-SEMANTIK
TRANSFORMATSIYASI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO‘K: 811.531:81’25+81’373.4

КБК:81.2-3/7 (5Kor)

T-27

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Taylanova Muqaddasxon Nazarboy qizi

Koreyscha ertaklarning o‘zbekcha tarjimasida hayvonot va o‘simlik
dunyosining leksik-semantik transformatsiyasi 3

Тайланова Мукаддасхон Назарбой кизи

Лексико-семантическая трансформация животного и растительного
мира при переводе корейских сказок на узбекский язык 21

Taylanova Mukaddaskhon Nazarboy kizi

Lexical-semantic transformation of the flora and fauna in the translation
of Korean Fairy-tales into Uzbek language 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

TAYLANOVA MUQADDASXON NAZARBOY QIZI

KOREYSCHA ERTAKLARNING O‘ZBEKCHA TARJIMASIDA
HAYVONOT VA O‘SIMLIK DUNYOSINING LEKSIK-SEMANTIK
TRANSFORMATSIYASI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy Attestasiya Komissiyasida
B2022.2.PhD/Fil2647 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tsuos.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Omonov Qudratulla Sharipovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponetlar:

Usmanova Shoira Rustamovna
filologiya fanlari doktori, professor

Ochilov Ergash Zakirovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» ____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «__» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.M. Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

R.A. Alimuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filol.f.d., dotsent

X.Z. Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarjimashunosligida transformatsiya fenomeni har doim tadqiqotchilarning e'tiborini tortib kelgan muhim masalalardan bo'lib kelgan. Ayniqsa, tarjima transformatsiyalari qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarning o'zaro aloqalarini aniqlashda, mazkur tillar doirasida amalga oshirilgan tarjimalarda milliy-madaniy, badiiy va lisoniy xususiyatlarni adekvat talqin qilishda, asliyat mazmunini saqlagan holda, uni lisoniy va semantik nuqtayi nazardan qayta yaratishda dolzarblik kasb etadi.

Jahon adabiyotida tarjima asarlari turli xalqlarning adabiyoti, madaniyati, an'analari, urf-odatlarini va tafakkur tarzini o'rganishda qimmatli manba bo'lish bilan birga, bugungi ko'pmadaniyatli dunyoda turli elatlarni biri-biriga yaqinlashtiruvchi muhim almashinuv vositasi ham hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar jahon adabiyoti tadrijida sezilarli iz qoldirgan koreys adabiyoti va folklori namunalari tarjima qilish va ularni tadqiq etish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Biroq koreys tilidan qilingan tarjimalarni salmog'i jihatidan ham, tadqiqi jihatidan ham yetarli deb bo'lmaydi. Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilgan tarjimashunoslikka oid izlanishlarda transformatsiya masalasi ayrim tillar doirasida ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, aynan koreys tilidan o'zbek tiliga ertaklar tarjimasini nuqtayi nazaridan yaxlit, kompleks tarzda tadqiq etilmagan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng miqyosli islohotlar davrida O'zbekiston va Janubiy Koreyaning hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarilib, ikki davlat orasida ilm-fan, madaniyat, adabiyot sohasida munosabatlar tobora mustahkamlanib bormoqda. "Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbayi esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda, desak, adashmagan bo'lamiz"¹. Binobarin, o'zbek va koreys xalqlarining asl milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, qarashlarini o'zida namoyon etuvchi ertaklarini o'rganish, ularni tarjima qilish har jihatdan ahamiyatga molikdir. Shu kunga qadar koreys ertaklarining o'zbek tiliga tarjimasini rus tili orqali nihoyatda kam sonda amalga oshirilgan. Tabiiyki, har qanday tarjima asliyatdan o'girilmas ekan, asarning to'liq mohiyatini anglash imkoniyati tushib boraveradi. Shu nuqtayi nazardan koreys ertaklarini o'zbek tiliga asliyatdan tarjima qilish hamda ertaklar olamining eng muhim unsurlari hayvonot va o'simlik dunyosiga oid lisoniy birliklarning leksik-semantik transformatsiyalarni tadqiq etish o'zbek tarjimashunosligining muhim masalalaridandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4301-son Qarori, 2020-yil 20-noyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida",

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.04.2022-yildagi PQ-4680-son. (<http://lex.uz/docs/4791086>).

2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tarjimashunosligida leksik-semantik transformatsiya masalasi qator tarjimashunos va tilshunos olimlarning ishlarida tadqiq etilgan².

Transformatsiya usuli xususida tadqiqotchilar turli fikr-mulohazalarni bildirishgan. Xususan, tarjimashunos olim V.N. Komissarov leksik transformatsiyalarni transkripsiya, transliteratsiya, kalka, leksik-semantik almashtirish (aniqlash, umumiyashtirish va modulyatsiya) kabi usullarga ajratadi va “transformatsiya yordamida muqobil so‘zlarni qo‘llash va so‘zlarni taqqoslashda omonimlardan tashqari umumiy ma‘nolarni ham aniqlash kerak”ligini ta‘kidlaydi. L.S. Barxudarov asl matnni tarjima qilishda ekvivalent so‘zlarning berilishi va matn tarjimasining bir qator tarjima texnikalari qo‘llanilishi (umumlashtirish, konkretlashtirish, antonimik tarjima, kompensatsiya, yaxlit transformatsiya), ya‘ni almashtirish usuli o‘rinli ekanligini qayd etadi. N.K. Garbovskiy transformatsiyani ijobiy tomondan namoyon bo‘ladigan shakl o‘zgartiruvchi, qayta o‘zgartiruvchi, almashtiruvchi va tarjimini takomillashtirish orqali ma‘lum so‘zlarga boshqacha ko‘rinish yoki tuzilish beruvchi usul, deb izohlaydi³.

Ertaklar tarjimasida e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan o‘ziga xos jihatlar xususida ham turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, A.V. Fedorov jargonlar, realiyalar, tovushga taqlid so‘zlar hamda ayrim iboralarni ertaklar tarjimasida tarjima qilib bo‘lmaydigan unsurlar qatoriga kiritadi. N.V.Gavrish, Yu.A.Rudenko, O.S.Ushakova kabi tadqiqotchilarning fikricha, ertak tarjimasida metonimiya, giperbola, epitet,

² Гарбовский Н.К. Теория перевода. – М.: Из-во Моск. ун-та, 2004; Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990.; Гарбовский Н.К. Теория перевода. – М.: Из-во Моск. ун-та, 2004; Швейцер А.Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990; Щетинин Л.М. Современное состояние русского языка и проблемы обучения ему иностранцев. Русский язык как государственный. – Челябинск, 1997. – 245 с.; Федоров А.В. Искусство перевода и жизнь литературы Очерки. – Ленинград: Сов. писатель: Ленингр.отд-ние, 1983. – 352 с.; Федосеенко Н.В. Особенности художественного перевода сказочного жанра (на материале сказок О.Уайльда). – Белгород: НИУ, 2018. – 61 с.; 한국어교육연구소 ‘한국어 의성어 의태어’, 동양북스, 2014. 144 쪽; Рецкер Я.И. Что же такое лексические трансформации?// «Тетради переводчика»№17. М.: Международные отношения, 1980. – 72-84 с.; Латышев Л.К. Курс перевода: Эквивалентность перевода и способы ее достижения. – М.: Международные отношения, 1981 – 247 с.

³ Комиссаров В.Н. Слово о переводе – М.: Международные отношения, 1973. – С 215; Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – С. 147-157; Бархударов Л. С. Язык и перевод. Вопросы общей и частной теории перевода. – М.: «Международные отношения», 1975. – С.240; Гарбовский Н.К. Теория перевода. – М.: МГУ, 2007. – С.416.

taqqoslash, metafora kabi stilistik ifodalarga e'tibor berish kerak. Chunonchi, bu ifodalar so'zga hissiyot va nutq jilosini beradi. Shu bois, ertaklarni tarjima qilishdan oldin ularning leksik xususiyatlarini yaxshilab tushunish kerak bo'ladi⁴.

O'zbek adabiyotshunosligida ham ertaklar borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Sh. Shomusarovning "Поэтика и типология арабских сказок" nomli monografiyasida arab ertaklari, uning tarixi, ertak qahramonlari, ertaklar yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida muhim ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, A.Mannonovning "Afg'on xalq ertak va hikoyatlari" asarida dariy va pashtu tilidan o'g'irilgan ertaklar o'rin olgan⁵.

Q. Beknazarov, S. Jumayeva, Z. Usmonovalarning tadqiqotlari ertaklar, N. Do'stxo'jayeva, M.Sodiqova, N. Qodirovlarning izlanishlari esa, bevosita sehrli ertaklar tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, ularda, asosan, ertak qahramonlarining harakati, badiiy tasvirlar, obrazlar hamda sehrli ertaklarga xos zamon va makon talqini, tuzilishi, syujeti bilan bog'liq masalalar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan⁶.

Koreys olimlarining ishlarida ham ertaklar yuzasidan muayyan tadqiqotlar olib borilgan. Chunonchi, Kim De Suk (김대숙)ning "Koreys folklori va adabiyoti bo'yicha tadqiqotlar", Son Dong In (손동인)ning "Koreys xalq ertaklari tadqiqi" nomli asarlarida, shuningdek, Li Song Jin (이성진)ning izlanishlarida koreys ertaklari va ularda qo'llanilgan obrazlar, hayvonot olami borasidagi fikrlar va tahlillarni uchratish mumkin⁷.

Biroq bugunga qadar ertaklar borasida amalga oshirilgan ishlarning aksariyati adabiyotshunoslik masalalari doirasida bo'lib, ularda qarindosh tillarning ertaklari tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan yaxlit tarzda maxsus o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Sharq tarjimashunosligining nazariy va amaliy masalalari" mavzuidagi ustuvor ilmiy tadqiqot yo'nalishi, shuningdek, "Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika" kafedrasining ilmiy yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi koreyscha sehrli ertaklarning o'zbek tilidagi tarjimasida hayvonot hamda o'simliklar dunyosi bilan bog'liq birliklarning leksik-semantik transformatsiyasi yo'llarini aniqlash va ochib berishdan iborat.

⁴ Федоров А.В. Основы общей теории перевода. 4-е изд. – М.: Высш. Шк., 1983. – С.416; Федоров А.В. Искусство перевода и жизнь литературы. Очерки. – Ленинград: Сов. писатель. Ленингр. Отд-ние, 1983. – С.352.

⁵ Шамусаров Ш. Поэтика и типология арабских сказок. – Ташкент: ТДШУ, 2019. – 237 с.; Маннонов А.М. Афғон халқ эртақ ва ҳикоятлари. – Тошкент: ТДШИ, 2017. – 280 б.

⁶ Бекназаров Қ. Ўзбек халқ маиший эртақлари (ўрганилиши, таснифи, поэтикаси): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Жумаева С.Ч. Хайвонлар ҳақидаги эртақларнинг генетик асослари ва спецификаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996; Усмонова З. Ўзбек эртақ-новеллаларининг ўзига хос хусусиятлари ва бадиияти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Дўстхўжаева Н. Ўзбек сеҳрли эртақларининг структурал таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Содиқова М.А. Ўғай киз типидagi туркум эртақларининг спецификацияси, генезиси ва бадиияти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2003; Қодиров Н. Ўзбек сеҳрли эртақларида замон ва макон талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.

⁷ 김대숙. 한국설화문학연구.월인. 2002; 손동인. 한국전래동화연구. 저음문화사. 석사논문 1984; 이성진. 한국전래동화연구. 연세대학교 교육대학원 석사논문. 1986.

Tadqiqotning vazifalari:

tarjimada leksik-semantik transformatsiya masalasini yoritish;

ertaklardagi yovvoyi va uy hayvonlariga tegishli lug'aviy birliklarning o'zbekcha tarjimada berish yo'llarini asoslash;

koreys sehrli ertaklarida uchraydigan xayoliy hayvonlar obrazlari bilan bog'liq birliklar transformatsiyasini tahlil etish;

koreyscha sehrli ertaklarning o'zbekcha tarjimasida o'simliklar dunyosi bilan bog'liq birliklar transformatsiyasini yoritish;

Tadqiqot obyektini koreys xalq og'zaki ijodidagi sehrli ertaklar va ularning o'zbek tilidagi tarjimasi⁸ tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida koreyscha sehrli ertaklarning o'zbekcha tarjimasida hayvonot va nabobot olami bilan bog'liq birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularning leksik-semantik transformatsiyasi belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsifiy, qiyosiy, semantik, transformatsion va lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

koreyscha sehrli ertaklardagi hayvonot va nabobot olamiga tegishli leksik birliklarning o'zbek tilidagi tarjimasida leksik-semantik transformatsiyaning generalizatsiya (umumlashtirish), modulyasiya (almashtirish), konkretizatsiya (aniqlashtirish), transliteratsiya, so'zma-so'z hamda so'z qo'shish singari usullari aniqlangan;

tahlilga tortilgan koreyscha sehrli ertaklarning o'zbek tilidagi tarjimalarida yovvoyi, uy, xayoliy hayvonlar, daraxt, o'simlik va gul bilan bog'liq birliklarning leksik-semantik transformatsiyasida modulyasiya usulining ustuvorligi isbotlangan;

koreys tilidagi sehrli ertaklarda uchraydigan fantastik hayvon obrazlarining lingvomadaniy tahlili natijasida ularning xitoy mifologiyasining ta'siri asosida yaratilganligi aniqlanib, ertaklarda “용 (ajdarho)” obraziga tegishli birliklar faol ekanligi asoslangan;

koreyscha sehrli ertaklarda inson xatti-harakati, ichki va tashqi qiyofasini ko'rsatishda ko'proq fitonimlardan foydalanilishi, ularning xalq milliy mentaliteti, dunyoqarashi va tafakkur tarzini ifodalashi, o'zbekcha tarjimada bunga alohida e'tibor qaratilishi kerakligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

tarjimada leksik-semantik transformatsiya hodisasi o'rganilib chiqilgan;

tadqiqotda chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan tarjimashunoslik, qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik sohalarida qo'llanma va darsliklar yaratish, izohli va ikki tilli lug'atlar tuzishda, shuningdek, koreys tili ta'limida foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan;

dissertatsiya materiallari qarindosh tillardan tarjimaga oid tadqiqotlar yaratish uchun zarur manba bo'lishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tarjima materiallari tahlili orqali asosli ilmiy xulosalar chiqarilganligi, soha bo'yicha qo'yilayotgan muammoning dolzarbligi, yangi va muhim vazifalarning hal etilganligi, dalillarning nazariy

⁸ Taylanova M. Gullar mamlakatining shahzodasi. Koreys xalq ertaklari. – Toshkent: Fan ziyosi, 2022.

asoslanganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari qiyosiy-nazariy usullar yordamida yechilganligi va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati koreyscha sehrli ertaklarning o‘zbekcha tarjimalari tarjima nazariyasi bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlarni yanada kengaytirishi, tarjimashunoslikdagi nazariy qarashlarni boyishi, badiiy tarjimaning nazariy jihatlarini ochib berish, xususan, tarjimada leksik-semantik transformatsiya usullaridan foydalanish kabi muammolarning nazariy jihatlarini yoritishda muhim rol o‘ynashi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarjima jarayonida qo‘llanilgan transformatsiya usullarni o‘rganish natijasida umumlashirilgan xulosa va tavsiyalar kelajakda yangi tarjima asarlarini yaratishda muhim material bo‘lishi, universitetlarning o‘quv jarayonida adabiy aloqalar, folklorshunoslik, qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik kabi ixtisoslik fanlaridan ma’ruza va seminarlar, maxsus kurslarni tashkil etishda, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash, ikki tilli va izohli lug‘atlar yaratishda, shuningdek, tarjimaning nazariy muammolarini hal qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Koreyscha sehrli ertaklarning o‘zbek tilidagi tarjimasida hayvonot va o‘simliklar dunyosining leksik-semantik transformatsiyasi tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

koreyscha sehrli ertaklardagi hayvonot va o‘simlik dunyosining talqini, obrazlar va uning o‘zbek tiliga tarjimasida qo‘llanilgan transformatsiyalar xususidagi tahlillardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan yosh ijodkorlarning an’anaviy “Zomin” respublika seminarida “Badiiy tarjima” sho‘basidagi ilmiy yo‘nalishlarda foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2022-yil 29-apreldagi 01-03/628-son ma’lumotnoma). Natijada Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan badiiy tarjimaga oid seminar mashg‘ulotlarining ilmiy-amaliy ahamiyatini oshishiga hamda ertak matnlarining o‘zbek tiliga tarjima etish yo‘llari bo‘yicha amaliy asos bo‘lib xizmat qilgan;

sehrli ertaklardagi xayoliy hayvonlar va ularni tarjimada berish bilan bog‘liq natijalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Foreign languages” telekanali “Good morning, Uzbekistan!” teleloyihasining koreys ertaklariga bag‘ishlangan maxsus sonini hamda “O‘zbekiston” telekanalidagi “Assalom, O‘zbekiston” dasturidagi “Telesayohat” sahifasini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi davlat mussasasining 2022-yil 8-apreldagi 02-16-761-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlarning ashyoviy bazasi mustahkamlangan hamda o‘zbek teleauditoriyasi uchun koreyscha sehrli ertaklarning o‘ziga xos jihatlarini bo‘yicha yangi ma’lumotlarni olishiga xizmat qilgan;

koreys tilidagi sehrli ertaklarning o‘zbek tiliga tarjima usullari, hayvonot va o‘simlik dunyosining tarjimada berish bilan bog‘liq xulosalardan Koreya Respublikasining Hanguk chet tillar va Honam universitetlarining tarjima yo‘nalishlari tadqiqotchilari uchun ilmiy ma’ruza materiallarini tayyorlashda foydalanilgan (Koreya Respublikasi Hanguk chet tillar va Honam universitetlarining 2022-yil 21-apreldagi ma’lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston Respublikasi va

Koreya Respublikasi o'rtasida malakali tarjimon mutaxassislar tayyorlash va ushbu yo'nalishda ilmiy hamkorlikni amalga oshirish masalalariga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza shaklida bayon qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Shuningdek, 2022-yil nashrdan chiqqan "Gullar mamlakatining shahzodasi" nomli ertaklar tarjimasi hamda dissertatsiya mavzusi yuzasidan yozilgan "Uzbek translation of flora and fauna in Korean magic fairy tales" nomli ingliz tilidagi monografiya Germaniyada "Lambert" nashriyoti tomonidan oltita yevropa (ispan, italyan, fransuz, rus, portugal, nemis) tillariga tarjima qilinib nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Disseratatsiyaning **kirish** qismida ilmiy ish mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan. Shuningdek, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti berilgan, disseratatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari asoslanib tadqiqot usullari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, disseratatsiyaning tuzilishi, hajmi, olingan natijalarning ishonchliligi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

“Sehrli ertaklar tarjimasining nazariy masalalari” deb nomlangan birinchi bobda sehrli ertaklarning o'ziga xosliklari, koreys va o'zbek ertaklari talqini, tarjimadagi muammolari yoritilgan. Shuningdek, ikki madaniyat o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar tahlil qilingan.

Har bir xalqning og'zaki ijodida qo'shiqlar, milliy o'yinlar, ertaklar muhim o'rin tutadi. Ular o'sha xalqning azaliy milliy qadriyatlarini, madaniyatini o'zida mujassam etadi. Ertak, rivoyat va afsonalar ajdodlarning olam haqidagi badiiy tasavvurlari hosilasi bo'lib, ular xalq orasida keng qo'llaniladi. Millatning yozma adabiyoti aynan ana shu adabiy janrlarda asosan yuzaga keladi.

V.Y.Proppdan farqli o'laroq B.Kerbelite ertakning beshta oddiy syujetini taklif qiladi:

- 1) dushmanlardan ozod bo'lish yoki ular ustidan hukmronlik qilishga intilish;
- 2) ezgulik va yaxshilik keltiradigan buyumlarni qo'lga kiritish;
- 3) oila yoki jamiyatda teng yoki yuqori mavqega intilish;
- 4) kelin yoki kuyov izlash;
- 5) oilaning farovonligiga intilish.⁹

V.Gumboldt “Tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning turlichaligida emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko'rishning farqliligi natijasidir” deb qayd qilgan. Chindan ham, har bir millatning o'ziga xos ko'rish tarzi, o'ziga xos idrok intizomi, umumlashtirib aytganda, o'ziga xos tafakkur tamoyili bor... Amerikalik tilshunos Benjamin Li Uorf “Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o'ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqachroq bo'lardi” degan.¹⁰

Koreys ertaklari ham boshqa xalqlar, xususan, o'zbek xalq ertaklari singari ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, boy va kambag'al, hukmronlar va ezilgan xalq orasidagi ziddiyatli munosabatlarni o'zida aks ettirgan.

Yevropa ertaklarida, ko'pincha xizmatkor bosh qahramon hisoblansa, qadimgi koreys ertaklarida kambag'allar evaziga kun kechiruvchi “mungekam”, ya'ni zodagonlar asosiy personaj sifatida namoyon bo'lgan.

Koreyslarning ilk badiiy tafakkurining o'ziga xosliklari xalq og'zaki ijodining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Xalq og'zaki ijodi, mifologiya an'analaridan foydalanish, maishiy sohadagi odatlar, diniy marosimlar va rasm-rusumlarni aks ettirish, o'zining ilohiy kelib chiqishini anglab yetish, osmon podshosini madh etish, tog'lar ruhiga sig'inish koreys adabiyotining ham muhim xususiyati hisoblanadi. Bular Birlashgan Silla davrida muhim ahamiyat kasb etgan.

⁹ Щурик Н.В., Горшкова В.Е. Волшебные сказки в свете интерсемиотического перевода. Вестник РУДН. Серия: Лингвистика. Иркутск, 2019. – С.418.

¹⁰ Махмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998. –Б. 9-10.

Sehrli ertaklarning asosiy qahramonlari, harakatlari, manzili, syujeti turlichaligi va ba'zida bir xilligi bilan diqqatni tortadi. Misol uchun, taniqli folklorchi V.M. Jirmunskiy O'rta Osiyo xalqlarining sehrli ertaklari va qahramonlik eposlarida tilab olingan bola asarning bosh qahramoniga aylanishi Yaqin Sharq va O'rta Osiyo, arab, fors va turklarda keng tarqalganligidan darak beradi¹¹, deb ta'rif beradi.

Sehrli ertaklarga xos tadqiqotlar ichida 1939-yilda "O'zbek xalq ertaklari"¹² to'plamida B.Karimiy ertaklarga xos asosiy xususiyatlar yoritgan. 1964-yil M. Afzalovning "O'zbek xalq ertaklari haqida"¹³ nomli kitobi, shuningdek, Q.Beknazarov, S. Jumayeva, Z. Usmonova, N. Do'stxo'jayeva, M. Sodiqova, N. Qodirov¹⁴, N.V.Shurik¹⁵, Yu. V.Limorenko¹⁶ kabi tadqiqotchilarning ertaklar tadqiqi bo'yicha yozilgan dissertatsiya ishlari mavjud. O.Yu.Kostikova¹⁷, V.Ya.Propp¹⁸ kabi olimlarning asarlarida ertak tarjimalariga oid manbalar uchraydi.

Koreys ertaklarining ko'pi o'zbek tiliga bilvosita rus tili orqali tarjima qilingan. Ularning ko'pchiligi o'z o'quvchilarini topib ulgurgan. Jumladan, "Gul o'stirolmagan bola", "Bo'ri nega terisidan ajraldi", "Atirgul va lotus", "Qahramonning qonli ko'z yoshlari", "Qahramon ko'li" kabi ertaklar xalq orasida sevib mutolaa qilinadi. Koreys xalqining orzu-niyatlari va shodligi "Jansu" obrazida mujassamlashgan ("Qahramonning qonli ko'z yoshlari", "Qahramon ko'li").¹⁹

Sehrli ertaklarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularda syujetning takrorlanishidir. Ularda "ayniqsa, badiiy ifodalar ko'p uchraydi: (mehribon ot, mayin maysalar, ko'm-ko'k osmon, daryo), ya'ni o'xshatishlar, metaforalar, qiyoslashlar sehrli ertaklarning asosiy qismidir"²⁰. Jumladan, sehrli ertaklarda o'xshatishlarning berilishi va ularni tarjima qilish jarayonlarining tahlili koreys tilidagi o'xshatishlarning xitoy, yapon, vyetnam tillaridagi o'xshatishlarga juda yaqinligini ko'rsatdi. Bunday yaqinlik sababini madaniyatlar, an'analar, dunyoqarashlar, hatto geografik joylashuvlarning mushtarakligi bilan izohlash mumkin.

¹¹ Жалолов. Ф. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. –Тошкент: Фан, 1976. – Б.14.

¹² Каримий Б. Ўзбек халқ эртакларининг баъзи хусусиятлари.//Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1995.–Б.45.

¹³ Афзалов М.И. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. – Тошкент: Фан, 1964.

¹⁴ Бекназаров Қ. Ўзбек халқ маиший эртаклари (ўрганилиши, таснифи, поэтикаси): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Жумаева С.Ч. Ҳайвонлар ҳақидаги эртакларнинг генетик асослари ва спецификаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996; Усмонова З. Ўзбек эртақ-новеллаларининг ўзига хос хусусиятлари ва бадийати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. –Тошкент, 1999; Дўстхўжаева Н. Ўзбек сеҳрли эртакларининг структурал таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Содиқова М.А. Ўғай киз типидagi тукум эртакларининг спецификацияси, генезиси ва бадийати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2003; Қодиров Н. Ўзбек сеҳрли эртакларида замон ва макон талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.

¹⁵ Щурик Н.В. Опыт лингвосомиотиче-ского анализа народной волшебной сказки: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск, 2007.

¹⁶ Лиморенко Ю. В. Проблемы перевода фольклорных текстов: на материале фольклора эвенков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2007. – С. 205.

¹⁷ Костикова О.Ю. Истинностные и ценностные аспекты перевода сказки // Вестник Московского университета. Серия 22. Теория перевода. 2015. No 2. – С. 100-113.

¹⁸ Пропп В.Я. Морфология волшебной сказки // Собрание трудов: Морфология волшебной сказки. Исторические корни волшебной сказки. – М.: Лабиринт, 1998. – С. 1-111.

¹⁹ Пак В. Феи с Алмазных гор: Корейские народные сказки. Пер. с корейского. – М.: Худож. лит., 1991. – С. 383.

²⁰ icey.net/free/12-analiz_proizvedenii_literatury_do_20_veka_dlya_sochinenii/53-neissyakaemyi_istochnik_ustnoe_narodnoe_tvorchestvo/stages/2571-volshebnye_skazki.

Sehrli ertaklarda o'ziga xos motivlarning o'rni va voqealar rivoji boshqa xil ertaklardan ancha farq qiladi. Aynan sehr bilan bog'liq hodisalar ham hamma joyda bir xil tarzda kelmaydi. Shu bilan birga, totemistik ruhning sehrli ertaklarda sezilishi qadimdan xalqlarning totemlarga ishonganligining isbotidir. Sehrli ertaklarda xuddi g'ayrioddiy holatlarning yer yuzida sodir bo'lishi, tabiatda kutilmagan hodisalar yuz berishi bilan ham qadimdan odamlarni hayratga solgan va shu jihatdan og'izdan-og'izga o'tib sehr kuchi borligiga ishonib ertaklar vujudga kelgan degan taxminga kelish mumkin.

A.V. Fedorovning fikricha, ertaklar tarjimasida tarjima qilib bo'lmaydigan elementlarga jargonlar, realiyalar, tovushga oid taqlid so'zlar, ba'zi iboralar kiradi²¹. L.M. Shetinin esa ertaklar tarjimasida quyidagilarga ahamiyat berish kerak, deb hisoblaydi:

1. Transkripsiya va transliteratsiya- chet tilidagi milliy xos so'zlarning fonetik formasini yaratadi: Sadko-Садко, Сивка-Sivka

2. Kalka – semantik ma'noni saqlagan holda milliy xos so'zlarni boshqa tilga o'tkazish. Lekin semantik holatni saqlash milliy koloritning saqlanib qolishiga xizmat qilmaydi. Chunki so'zning ma'nosi tarjima orqali yetkaziladi: Masha and the bears (Masha va ayiqlar).

3. Yarim kalka – so'z ifodasini hisobga olgan holda yarim asl, yarim muqobil tarjimaga asoslanadi: Beautiful Vassilisa- Васелиса Премудрая.

4. Neologizm – Asl matndan kelib chiqqan holda tarjimon ixtiyoriga asoslangan muqobil tarjima: The Humpbacked Pony-Конек-Горбунок, Father Frost-Дед Мороз.

5. O'xshash tarjima (funktional o'zgartirish) – bu tarjima usuli juda ko'p qo'llanilib, asl matn bilan tarjima juda mos keladi: muffin-сдоба

6. Ifodaviy tarjima – tarjima qilish mumkin bo'lmagan holatda qo'llaniladi: milk and honey – кисельные берега²².

Koreys va o'zbek ertaklarining ko'p o'rinlarda o'xshash jihatlari borligi sharqona madaniyatning yaqinligidan darak beradi. Ertaklar tarjimasining muammolari turlicha. Yuqorida keltirilgan transformatsiya usullaridan foydalangan holda tarjimani amalga oshirish maqsadga muvofiq. Shu o'rinda metonimiya, metafora, taqqoslash kabi sifatlarni ikki tilda ham yaxshi bilish talab qilinadi. Chunki madaniyatlarning turlichaligi tarjimada ularni noto'g'ri qo'llashga olib kelishi mumkin. Yuqorida koreys ertaklarida o'zbek ertaklarida uchramaydigan qahramonlar, xayoliy obrazlarning xatti-harakati, ularning ezgulik yoki yovuzlikka xizmat qilishini ko'rish mumkin. Tarjimada esa tarjimon o'zga tilga izohlar yoki muqobil so'zlarni to'g'ri qo'llashi lozim. Ayniqsa, milliy xos so'zlarning keng uchrashi tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Tadqiqotchilarning fikrlarida ham tarjima usullaridan foydalangan holda tarjimani amalga oshirish muhim ekanligi yoritiladi. Shu bilan birga, tarjimada fonetik tahlilga ham yaxshi e'tibor berish lozim.

21 Федоров А.В. Основы общей теории перевода. 4-е изд. – М.: Высш. Шк., 1983. – С.416.

22 Щетинин Л.М. Современное состояние русского языка и проблемы обучения ему иностранцев. – СПб. Русский язык как государственный. – Челябинск, 1997.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Koreys tilidagi sehrli ertaklarning o‘zbek tilidagi tarjimasida hayvonot dunyosining leksik-semantik transformatsiyasi”** deb nomlanadi. Mazkur bob yovvoyi hayvonlar, uy hayvonlari hamda xayoliy hayvonlarni ifodalaydigan lug‘aviy birliklarning leksik-semantik transformatsiyasi masalasini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ma’lumki, Koreya yarim orolida yo‘lbarslar ko‘p tarqalgan. Qadim-qadimdan koreyslar yo‘lbarsni hayvonlar shohi, deb ataydilar, chunki quruqlikda yashovchi barcha jonzotlarning hokimi sanalmish yo‘lbars kuch-qudratda tengsiz hisoblanadi. Shu sababli koreys folklorida yo‘lbars obrazi ishtirok etgan ertaklar ko‘p uchraydi. Masalan: “호랑이가 준 요술 보자기” [horangi-ga chunyosul pojagi] (“Yo‘lbarsning jodusi”), “호랑이 형님” [horang-i hyeongnim] (“Yo‘lbars og‘a”), “팔죽할머니와 호랑이” [patjug halmeoniwa horang-i] (“Qizil loviya pishiruvchi buvi va yo‘lbars”), “해님과 달님” [haenimgwa talnim] (Quyosh va oy), 호랑이와 꽃감 [horang-iwa kotkam] (Yo‘lbars va o‘tin), 호랑이 뱃속 구경 [horang-i baes-sog gugyeong] (Yo‘lbars qornida sayr)²³.

Tarjima jarayonida taqlid so‘zlarning tarjimasiga alohida diqqat qaratish kerak bo‘ladi. Chunki taqlid so‘zlarning o‘zga tilga tarjimasida har doim ham bir xil bo‘lavermaydi yoki ular umuman mavjud bo‘lmaydi. Koreys tilidagi tovushlar o‘zbek tilida uchramasligi mumkin. Shuningdek, koreys muloqotida harakatlarni ifodalash uchun ham taqlid so‘zlar mavjud, ammo ularni o‘zbek tilida har doim ham muqobil tarzda berib bo‘lmaydi. Shu bois mutarjimdan tarjima jarayonida qayd etilgan barcha jihatlarni e’tiborga olishi talab qilinadi.

Hayvonlar tovushiga taqlid: o‘zbeklar uchun it “vov-vov”, koreyslar uchun – “땡땡–*mong-mong*”, mushukka nisbatan o‘zbekcha “miyov-miyov”, koreyslarda “야옹야옹 – *yaong-yaong*”, yo‘lbars va sherga nisbatan o‘zbekchada “irr”, koreyslarda esa “어흥어흥 – *eoheung-eoheung*”, qurbaqaga taqlid o‘zbeklarda “vaq-vaq” bo‘lsa, koreyslarda “개굴개굴 – *gaegulgaegul*”, o‘zbekcha va koreyschada qo‘y-qo‘ziga bir xil “떼에에 – *meee*” tarzida qo‘llaniladi, xo‘rozga nisbatan o‘zbekcha “qu-qu” bo‘lsa, koreyslarda “꼬끼오– *kkokkio*”, o‘rdakka nisbatan “g‘a-g‘a”, koreyslarda “꽹꽹 – *kvek-kvek*”²⁴ hisoblanadi.

Ma’lumki, tarjimada bitta tushunchaga mos keladigan boshqa bir tushunchani topish ancha mushkul vazifa hisoblanadi. Tarjima qilish jarayonida ikki tilda bir so‘zning barcha ma’noviy farqlarini qamrab olishning imkoni yo‘q. Asliyatdagi so‘z ma’nosi tarjima tilida to‘liq ekvivalent, qisman ekvivalentga ega bo‘lishi yoki hech qanday ekvivalentga ega bo‘lmasligi mumkin.

Koreys sehrli ertaklaridagi xayoliy hayvonlar o‘zbek xalq ertaklaridagi obrazlarga unchalik ham o‘xshamaydi. “Sehrli ertak qahramonlari o‘lib qayta tirilish xususiyatiga ega ekanliklari bilan ham bizni o‘ziga jalb qiladi. To‘g‘ri, o‘lgan odamga jon ato etilishi qadimgi ajdodlarimiz dunyoqarashi ifodasi sifatida baholanadi. Ammo ayni paytda o‘lgan odam ruhining kun, oy, yillar davomida o‘zi yashagan xonadondan ajramasligi, turli shakl va holatlarda qarindoshlariga ko‘rinib turishi

²³ Филимонова Е.Н. Символика животных в переводных произведениях. – М.: МАКС Пресс, 2004. – С. 3.

²⁴ Пак Л.В., Касымова Ш.С. Корейский язык. – Toshkent: KTM, 2016. – В.115.

sehrli ertaklarda oddiy tasvir vositalariga aylanganini ham qayd etish maqsadga muvofiqdir. Xalq ongida insonning biron yaxshiligi albatta, taqdirlanishi lozimdir”²⁵.

Koreys ertaklaridagi “to‘kkebi” obrazi xayoliy obrazlardan biri hisoblanadi. Ilmiy yo‘nalishda ushbu obraz Koreyada XX asrning 70-yillarida paydo bo‘lganligi aytiladi. Olimlar aynan ushbu obrazning qaysi ertaklarda uchrashini aniqlashtirib bormoqda.

O‘rmon ruhi sifatida tasavvur qilinadigan “to‘kkebi” ko‘pincha kechqurun, quyosh chiqishi va botishida paydo bo‘ladi. Bu obraz odamlarning yo‘lida, qiyin vaziyatlarda, tog‘larda paydo bo‘ladi. O‘rmon to‘kkebisi insonga yordam beruvchi, mukofotlovchi qiyofada tasvirlanadi. Aynan to‘kkebi va inson o‘rtasidagi kelishuv ertak nihoyasi hisoblanadi. To‘kkebi koreys sehrli ertaklarida quyidagicha gavdalanadi:

- 1) ko‘rinishi: inson, olov, turli xil buyumlarga aylanadi;
- 2) quroli: ko‘pincha o‘zi bilan bolta olib yuradi;
- 3) yashash joyi: tog‘lardagi o‘rmon, odamlarga yaqin joyda;
- 4) insonlar bilan munosabati: ular hiyla-nayrang qilishni, mukofot berishni bilishadi;

5) sehrli kuchi: ular g‘ayritabiiy sehriga ega.

Masalan, “도깨비를 물리친 사물놀이 – To‘kkebini mag‘lub etgan samul nori”²⁶ nomli koreys sehrli xalq ertagida to‘kkebi obrazi tasvirlangan:

그때, 휘이익 바람이 불며 벼들이 몹시 흔들리기 시작했어요. 도깨비들이 나타난 것이에요. 훈이와 아이들은 매우 놀랐지만 팽과리를 치기 시작했어요. 깨갱 깡 깡깡 – 그러자 하늘이 천둥번개가 치는 것처럼 우르릉 광광 요동을 치기 시작했어요.²⁷ [geutte, hwiig param-i bulmyeo byeodeuri mobshi heundeulligi sijaghaess-eoyo. Tokkaebideuri natanan geoshieyo. Huniva aidereun maeu nollajiman kkvaeng-gvarirl chigi sijaghaesseoyo. Kkaegaeng kkaeng kkaengkkaeng - geureoja haneuri cheondungpeongaega chineun geotcheoreom ureureung kvangkvang yodongeu chigi sijaghaesseoyo].

Tarjimasi:

“O‘sha paytda shamol esib, arpalar qimirlay boshlab bir nechta to‘kkebi paydo bo‘libdi. Huni va bolalar juda hayratda qolishlariga qaramasdan kkvengkvvari²⁸ni chalishni boshlabdilar. Keyin esa osmonda momaqaldiraq gumburlabdi.”

Ko‘pincha folklorda to‘kkebi insoniy xususiyatlarga ega bo‘lgan jonzot sifatida tasvirlangan, uning butun tanasi qalin sochlar bilan qoplangan. U oddiy koreys xalqining an‘anaviy kiyimida kiyingan holatda tasvirlanib ko‘pincha yog‘och bolg‘ani olib yuradi²⁹.

Uy hayvonlari ichida quyon ham ertaklarda keng talqin qilinadi. “토끼의 간 so‘zma-so‘z “Quyonning jigari” ertagi “Quyonvoyning shifobaxsh jigari”, deb tarjimada berildi va quyidagicha tahlil qilindi:

“토끼의 간이 어떠하기에 약이 된다고 하느냐?

²⁵ http://turizm.kasaba.uz/uz/uzbek_legends_and_mythes/fairy_tales

²⁶ Koreys milliy qo‘shig‘i

²⁷ http://18children.president.pa.go.kr/mobile/our_space/fairy_tales.php?srh%5Bcategory%5D=07&srh%5Bpage%5D=3

²⁸ Kichik koreys milliy asbobi bo‘lib, yog‘och bilan urib chalinadi.

²⁹ [Elektron manba] URL: <https://brunch.co.kr/@onestepculture/40>

